

JUN VA NAQSHLAR: GILAMLARDAGI MO'JIZA

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi Muzey buyumlari va fond to'plamlarini qayd etish va ro'yhatga olish bo'limi ilmiy xodimi

Ikromova Gulhayo

. Annotatsiya:Maqolada gilamlarning kelib chiqishi, to'qish san'ati va naqshlardagi ramziy ma'nolar, junning sifati, naqshlarning ahamiyati va gilamchilikda qo'llaniladigan texnologiyalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Islimiy va handasaviy naqshlar, to'quv dastgohi, ipak, jun, sholcha, bug'joma.

Gilamlar-insoniyatning asriy madaniyat va san'atiga oid betakror asarlardir. Ular faqatgina uy bezagi yoki kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi buyum sifatida emas, balki xalqning o'ziga xos madaniyati va tarixini aks ettiruvchi badiiy boylik sifatida qadrlanadi. Har bir gilamning naqshi, ranglari va materiallari turli hikoyalarda talqin etiladi. Naqshlar orqali o'tgan ushbu hikoyalarda odamlar orzu-umidlari, e'tiqodlari va tarixini avloddan-avlodga yetkazib kelgan.

Qadimdan aholi o'z turmush tarzidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir san'at turi bilan shug'ullangan. Xususan, o'troq aholi kashtachilik, chorvador aholi esa gilamchilik borasida ancha tajribali bo'lishgan. Bu sohalarning dastlab qanday paydo bo'lgani haqida ko'pgina olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. O'zbekiston hududidagi dastlabki gilam namunalari Xorazm hududidagi arxeologik qazishmalar

davomida topilgan.¹Qazishma ishlariga etnograf va arxeolog S.Tolstov boshchilik qilgan. O'zining uzoq o'tmishiga ega hisoblangan gilamchilik kasbi va uning noyob namunalarini "sirli tarix jarchilari" deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Tarixning bir qancha ochilmagan va adabiyotlarda yoritilmay qolgan jihatlarini o'z naqshlari orqali yoritib bera oladi. Chunonchi, So'g'd va Toxariston gilamlarining dong'i nafaqat Sharq, balki G'arb mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan. Bunda Buyuk Ipak yo'lida sug'd savdogarlarining roli yetakchi hisoblangan. Gilamlarda tasvir sifatida Afrosiyob, Bolaliktepa saroylarining ilk o'rta asrlarga tegishli devoriy naqshlari tasvirlangan.²

Gilam to'qish bilan dastlab ayollar shug'ullanishgan.To'qish jarayoni qo'lda bajarilganligi sababli uzoq vaqt talab etgan. Bitta gilam tayyorlash jarayoni taxminan bir necha oyni talab etgan. Shuning uchun ham qo'lda to'qilgan gilamlar zavodda to'qilgan gilamlardan ancha farqlangan, ularning qiymati hozirgi kunga qadar yuqori baholanmoqda.Gilamlarni bezatishda va jozibadorligini oshirishda asosan, islimiy va handasaviy naqsh turlaridan foydalanishgan.Ushbu naqsh shakllarini tanlashda o'sha davr hunarmandlari o'z atrof-muhitlaridan andaza sifatida foydalanishgan.Xususan, gullar, o'simliklar, ba'zi hollarda hayvonlar va geometrik shakllarning o'ziga xos uslubda naqsh sifatida uyg'unlashganini ko'rishimiz mumkin.Qadimda hunarmandlar bu naqshlar gilam egasini turli balo-qazolardan, kutilmagan holatlardan asraydi deb, ishonishgan.

Gilam to'qishdagi asosiy xomashyo ipak va jundan tayyorlangan iplar hisoblanadi. Aynan iplarning sifatligi gilamning qiymatini oshirgan. Dastlab to'quvchilik paydo bo'la boshlagan davrda kichik gilamlarni to'qish uchun kanopdan, qichitqi o't, jut va boshqa shu kabi o'simliklarning novdalaridan foydalanishgani haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari echki,qo'y va tuya junlari ancha mahsuldor bo'lgan. Aynan, Yevroosiyo materigidagi birinchi xonakilashtirilgan

¹ Alimboyev.E, Sidiqov.P, Hasanov.B, Rahimxo'jayev.S, Yunusxo'jayeva.M, Qodirova.D. To'quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari.-T.:Ilm Ziyo, 2007. – B.263.

² Ўзбекистон каштачилиги ва гиламлари хорижий тўпламларда. – Т.: "Silk Road Media", " East Star Medi " МЧЖ , 2020 – Б.480.

hayvon hisoblangan echki junidan ko'p foydalanishgan. Buning sababi, echki juni yigirilishi ancha qulay va u o'zida ranglarni yaxshi singdirgan. Biroq vaqt o'tishi bilan qo'y junidan foydalanish keng tarqala boshlaydi, bunga izoh sifatida echki junining miqdori qo'y juniga nisbatan kamligi bilan tavsiflanadi.³ Xususan, O'rta Osiyoning qadimgi gilamlari haqida o'z tadqiqot ishlarini olib borgan baron A.E.Felkerzam o'z kitobida shunday yozadi: “ Hunarmandlar tayyorlagan gilamlar o'ziga xos ajib xususiyatlarga ega edi, ularni silaganingizda sizni tinchlantiruvchi bir his chulg'ab olganday bo'ladi. Gilamdagi ko'zni quvnatuvchi naqshlar va hunarmandlarning ochiq munosabati Sharq olamidan boshqa joyda uchramaydi.⁴ “Asar shundan dalolat beradiki, bizning hududimizdagi sifatli gilamlar va mohir hunarmandlar chet el olimlari va kolleksiyanerlarini qadimdan to hozirgi kungacha nazardan chetda qolgan emas.

Dastavval kichik gilamchalar to'qish bilan boshlangan gilamchilik kasbi vaqt o'tgan sari taraqqiy eta boshlaydi. Gilamlar faqat polga to'shach uchungina emas, balki chaylarning dekoratsiyasida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Chaylaning kirish qismiga kalta gilamlar ilib qo'yilgan. Kundalik va maishiy buyumlarni saqlash va olib yurishga qulaylik yaratish maqsadida turli xaltachalar ham to'qilgan. Otlarning egarlari va joynamozlar ham e'tiborga molik san'at asarlaridir. Ayniqsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda bug'joma keng tarqalgan. U asosan, ko'rpa to'shaklarni, kiyimlarni saqlash va tashishda keng tarqalgan. Gilamlar to'qilish uslubiga ko'ra 3 turga bo'linadi: uzun patli - “julxirs” (8-17 mm), qisqa patli - “qoqma gilam” (3-7 mm), patsiz - “sholcha”. Qabilalararo aloqalarning olib borilishi natijasida hunarmandlar ham o'z bilimlarini boyitib borishgan. Har bir qabilaning o'z ajralib turuvchi belgilari mavjud bo'lgan. Sharqiy gilamlarning aksariyat qismida Gelli tumorlari aks etgan. Gilamlardagi eng ko'p uchraydigan shakl to'gri to'rtburchak hisoblanadi va “ishonch” ma'nosini ifodalab keladi. Bundan tashqari, olti burchak

³ Ўзбекистон гиламдўзлиги :асрларга тенгдош анъана,- Т.: “ Silk Road Media “ , “ East Star Media “ МЧЖ , 2020 - Б.448.

⁴ Фелькерзам А.Е. Старинные ковры Средней Азии .- Издание ежемсячника “Старые Годы“ ,1915 – С.136.

(qabilalar ramzi sifatida), kvadrat (abadiylik), aylana (olam ramzi), qalampir (yomon ko'zlardan saqlash), anor (pusht), qo'chqor shoxi (mardlik) kabi shakllardan ham naqsh sifatida foydalanishgan.

Hozirda ushbu an'anaviy san'at turi bilan yosh avlodni yaqindan tanishtirish va chet el sayyohlarini bahramand etish maqsadida O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyining 5-ekspozitsiya zalida Jizzax, Xiva, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Qoraqalpog'iston gilamdo'zlik maktablariga tegishli XX asrga oid namunalari o'rin olgan. Binobarin, patli gilam, qisqa va uzun patli bog'lama gilam, asosan yerga to'shshga mo'ljallangan "qoqma"- patsiz sholcha, to'rva xaltalar, otlar uchun maxsus egar "xurjun" kabilar ayniqsa, diqqatga sazovordir. Devorlarda Andijon gilamdo'zligiga tegishli "Xidirsha", Shahrisabzning "Hujum" fabrikasida to'qilgan "Afg'oni" sholchasi, XX asrning 2- yarmiga oid Xivaning "Anor" va "Xanki" gilamlari va boshqa shu kabi bir qator noyob namunalardan bahramand bo'lishingiz mumkin. Bular orasida hozirgi kungacha har bir tashrif buyuruvchida katta taassurot qoldirishga erishgan Jizzax gilamdo'zlik maktabiga tegishli uzun patli "Julxirs" XX asrning 2-yarmiga oiddir. Ushbu hududda to'qilgan gilam boshqa hududlardan o'zining uzun patliligi va naqsh guli bilan farqlanadi. Bularning barchasi yorqin ranglari va serma'no naqshlari ila o'zbek xalq amaliy san'ati va an'analarini o'zida mujassam etadi. Ko'p asrlik tarixi va estetik ko'rinishi hozirgi kunda xalqaro e'tirofga molik. Xalqimizning o'tmish madaniy meroslarining zamonaviy dizayn va interyerlarda qo'llanishi milliy qadriyatlarimizning nechog'lik dolzarbligi va qimmatliligi oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Alimboyev.E, Sidiqov.P, Hasanov.B, Rahimxo'jayev.S, Yunusxo'jayeva.M, Qodirova.D.To'quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari.-T:Ilm Ziyo, 2007.-B.263

Фелькерзам.А.Е,Старинные ковры Средней Азии.-Издание ежемесьячника "Старые Годы",1915 – С.136.

Ўзбекистон гиламдўзлиги: асрларга тенгдош анъана, - Т.: “ Silk Road Media “, “ East Star Media“ МЧЖ, 2020 - Б.448.

Ўзбекистон каштачилиги ва гиламлари хорижий тўпламларда. – Т.: “ Silk Road Media “, “ East Star Media “ МЧЖ, 2020 – Б.480.

Internet manbalari:

<https://ziyouz.com;>

<https://society.uz;>